



TEMIR TANQISLIGI ANEMIYASI VA AYOLLAR
ORGANIZMIDAGI FUNKSIONAL O'ZGARISHLAR

Sanoyev Sardor To'liqin O'g'li

*Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti,
tibbiyot yo'nalishi, davolash ishi fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada temir tanqisligi anemiyasining ayollar organizmiga ta'sir etadigan xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Temir yetishmovchiligi anemiyasi gemoglobin sintezi buzilishi natijasida yuzaga kelib, to'qimalarda kislorodning yetib borishi keskin kamayishi bilan xarakterlanadi. Bu kabi holatlar ayollar orasida, ayniqsa reproduktiv yoshdagi shaxslarda juda keng tarqalgan bo'lib, inson organizmining asosiy fiziologik sistemalari faoliyatiga muntazam ravishda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maqolada temir yetishmovchiligi anemiyasining shakllanish mexanizmi, gematologik va biokimyoviy ko'rsatkichlarda yuzaga keladigan o'zgarishlar, shuningdek yurak-qon tomir, immun, metabolik va reproduktiv tizimlarda kuzatiladigan funksional buzilishlar mukammal bilimlar asosida yoritib berilgan. Maqola sog'lom turmush tarzini shakllantirish va kasalliklarning oldini olish masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: temir tanqisligi anemiyasi, ayollar salomatligi, gemoglobin, funksional o'zgarishlar, reproduktiv salomatlik, laborator diagnostika, sog'lom turmush tarzi.

Annotation: This article scientifically analyzes the characteristics of iron deficiency anemia and its effects on the female body. Iron deficiency anemia develops as a result of impaired hemoglobin synthesis and is characterized by a sharp decrease in oxygen delivery to tissues. Such conditions are widespread among women, especially those of reproductive age, and consistently have a negative impact on the functioning of the main physiological systems of the human body. The article presents, based on comprehensive scientific knowledge, the mechanisms of development of iron deficiency anemia, changes occurring in hematological and biochemical parameters, as well as functional disorders observed in the cardiovascular, immune, metabolic, and reproductive systems. The article is devoted to the formation of a healthy lifestyle and the prevention of diseases.

Keywords: Iron deficiency anemia, women's health, hemoglobin, functional changes, reproductive health, laboratory diagnostics, healthy lifestyle.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения проанализированы особенности железодефицитной анемии и её влияние на организм женщин. Железодефицитная анемия развивается в результате нарушения синтеза гемоглобина и характеризуется резким снижением доставки кислорода к тканям. Подобные состояния широко распространены среди женщин, особенно лиц репродуктивного возраста, и оказывают систематическое негативное воздействие на функционирование основных физиологических систем организма человека. В статье на основе комплексных научных данных изложены механизмы





формирования железодефицитной анемии, изменения гематологических и биохимических показателей, а также функциональные нарушения, наблюдаемые в сердечно-сосудистой, иммунной, метаболической и репродуктивной системах. Статья посвящена вопросам формирования здорового образа жизни и профилактики заболеваний.

Ключевые слова: Железодефицитная анемия, здоровье женщин, гемоглобин, функциональные изменения, репродуктивное здоровье, лабораторная диагностика, здоровый образ жизни.

Kirish. Temir tanqisligi anemiyasi (TTA)-gemoglobin sintezining buzilishi, eritropoezning susayishi va to'qimalarning kislorod bilan taminlanishining buzilishi orqali xarakterlanadigan kliniko-gematologik holatlardan hisoblanadi. Bu kabi holatlarning tez va ko'p uchrashining sababi--> inson organizmida temirning yetishmasligi bo'lib, u ayniqsa ayollar, homiladorlar va reproduktiv yoshdagi shaxslarda keng tarqaladi. Jahon miqyosida TTA ayollar orasida juda keng tarqalgan bo'lib, bu kasallik organizmning asosiy muhim funksiyalariga jiddiy ta'sir qiladi.

Temir tanqisligi anemiyasining paydo bo'lish mexanizmi. Temir elementi qonda kislorod tashishning asosiy komponenti bo'lgan gemoglobinning tarkibiy qismidir. Temir yetishmovchiligi kuzatilganda:

- Eritrotsitlar ikki tomonlama kichik va gipoxrom holatda bo'ladi (mikrisitar anemiya)
- Gemoglobin miqdori pasayadi, mushaklar qisqarishi sustlashadi
- Qonning kislorod tashish funksiyasi sezilarli darajada pasayadi

Temir tanqisligi anemiyasi yallig'lanish, surunkali kasalliklar, to'yib ovqatlanmaslik, qon yo'qotilishi yoki temir so'rilishining buzilishi tufayli rivojlanadigan holat hisoblanadi. Ayollar organizmida esa hujayralarning temirga bo'lgan ehtiyojining ortishi hayz ko'rish, homiladorlik va laktatsiya kabi fiziologik holatlar bilan bog'liq. Temir tanqisligi asosiy laborator indikatorlar orqali aniqlanadi.

1. Ferritin miqdori- inson organizmida temir zaxirasining ko'rsatkichlari past bo'ladi.
2. .Transferrinning to'yinganlik darajasi kamayishi kuzatiladi.
3. Gemoglobin kamligi sababli organizm rangi oqaradi, gematologik o'zgarishlar kuzatiladi.

Bu kabi holatlar ayol organizmida eritropoezning susayishini bildiradi, natijada qonning kislorod tashish qobiliyati pasayadi va hujayralar giperoksik stressga uchraydi. Temir yetishmasligi doimiy charchoq, umumiy zaiflik, nafas qisishi, jismoniy chidamlilikning pasayishi, metabolik faoliyatning susayishi, immun tizimining pasayishi kabi holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Temir tanqisligi anemiyasi diagnostikasi va laborator tekshiruvlar.

Temir tanqisligi anemiyasini aniqlashda:

- Gemolitik tahlillar: gemoglobin, eritrotsitlar soni, MCV, MCH
- Biokimyoviy ko'rsatkichlar: serum temir, ferritin, transferrin to'yinganlik darajasi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Temir tanqisligi anemiyasi eng keng tarqalgan gematologik patologiya bo'lib, inson organizmining muhim funksiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ko'plab tizimlar masalan, immunitet, umumiy metabolizm bilan chambarchas bog'liq.

Ayollar organizmida temir tanqisligi anemiyasining funksional oqibatlari.

Temir tanqisligi anemiyasi ayollar organizmida nafaqat gematologik, balki ko'plab tizimlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi murakkab funksional o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Temir yetishmovchiligi fonida hujayralarda energiya almashinuvi buzilib, oksidlovchi jarayonlar susayadi, bu esa umumiy metabolik faoliyatning pasayishiga olib keladi. Ayniqsa yurak-qon tomir tizimida kompensator mexanizmlar faollashib, yurak urishining tezlashuvi, arterial bosimning beqarorligi va jismoniy yuklamaga chidamlilikning kamayishi kuzatiladi.

Immun tizim faoliyatida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi. Temir tanqisligi limfotsitlar faolligining pasayishi, fagotsitoz jarayonining susayishi va organizmning infeksiya kasalliklarga qarshi rezistentligining kamayishi bilan kechadi. Bu holat ayollarda tez-tez shamollash, surunkali yallig'lanish jarayonlarining cho'zilib ketishi bilan namoyon bo'lishi mumkin.

Reproduktiv tizimda temir tanqisligi gormonal muvozanatning izdan chiqishiga olib kelib, hayz siklining buzilishi, ovulyatsiya jarayonining sustlashuvi va bepustlik xavfining ortishi bilan bog'liq. Homiladorlik davrida esa temir yetishmovchiligi platsenta qon aylanishining buzilishi, homila gipoksiyasi va gestatsion asoratlarning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, temir tanqisligi asab tizimi faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, kognitiv funksiyalarning pasayishi, diqqat va xotira buzilishlari, ruhiy beqarorlik holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ushbu o'zgarishlar ayollar hayot sifatining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, temir tanqisligi anemiyasi faqat gematologik muammo bo'lib qolmay, balki ayollar salomatligiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan kompleks tibbiy muammo hisoblanadi. Hayz siklining buzilishi, gormonal muvozanatning izdan chiqishi, homiladorlik davridagi asoratlarning va perinatal xavflarning ortishi ushbu kasallikning muhim klinik oqibatlari hisoblanadi. Homilador ayollarda temir tanqisligi anemiyasi homila rivojlanishining sekinlashishi, past vazn bilan tug'ilish va tug'ruq jarayonining murakkablashishi bilan bog'liq bo'lib, on avval salomatligiga uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Individual yondashuv asosida olib boriladigan davolash va profilaktik choralar ayollar hayot sifatini yaxshilash, mehnat qobiliyatini tiklash va reproduktiv salomatlikni muhofaza qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu kasallikni oldini olish, erta tashxislash va samarali davolash sog'liqni saqlash tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, sog'lom ayol—sog'lom jamiyat poydevori ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.





1. Maxmonov L. S, Mamatqulova F.X, Umarov Z.M. Ginekologik amaliyotda temir tanqisligi anemiyalari va davolashga zamonaviy yondashuvlar. Science and Education, 5 (2) [2024](#)

2. Zilola Eshankulova. Temir tanqisligi anemiyasini davolashda klinik-farmakalogik yondashuv. Modern Science and Research, 4 (4) [2025](#)

3. Temir tanqisligi anemiyasini aniqlash va davolash laborator diagnostikaning roli, Medicine, Pedagogy and Technology, 3 (5) [2025](#)

4. Temir tanqisligi anemiya oqibatlari va homiladorlik salomatligi bo'yicha ilmiy ma'lumotlar [2025](#)

